

MUHAMMAD AMINXO'JA MUQIMIY G'AZALLARINING KOMPOZITSION XUSUSIYATLARI

Tursunova Namunaxon

*Qo'qon universiteti pedagogika va
psixologiya kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qo'qon adabiy muhitining ko'zga ko'ringan vakili Muhammad Aminxo'ja Muqimiy g'azallarining kompozitsion xususiyatlari: tematik kompozitsiyasi, g'azal baytlarining o'zaro munosabatiga ko'ra turlari, g'azallarning qofiyalanish tartibi yoki qofiya san'atlarining qo'llanishiga ko'ra turlari, biror she'r san'ati asosida yaratilishiga ko'ra turlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *adabiy muhit, g'azal, kompozitsiya, yakpora, parokanda, musalsal, voqeaband, muvashshah, qofiya.*

Аннотация: *В статье анализируются композиционные особенности газелей Мухаммада Аминходжи Мукими, видного представителя кокандской литературной среды: тематическая композиция, типы по взаимосвязи стихов газелей, типы по порядку рифмовки или использованию рифмовальных приёмов, типы по созданию на основе того или иного поэтического приёма.*

Ключевые слова: *литературная среда, газель, композиция, единичная, разрозненная, мюсаль, сюжетная, подробная, рифмовка.*

Annotation: *This article analyzes the compositional features of the ghazals of Muhammad Aminkhodja Mukimi, a prominent representative of the Kokand literary environment: thematic composition, types according to the relationship of ghazal verses, types according to the rhyming order or the use of rhyme arts, types according to the creation on the basis of a particular poetic art.*

Keywords: *literary environment, ghazal, composition, single, scattered, musalsal, incident-related, detailed, rhyme.*

Mumtoz poetikaga oid kitoblarda g'azal baytlarining o'zaro munosabati nuqtai nazaridan ham bir qator turlari tasniflanadi: yakpora g'azal, parokanda g'azal, musalsal g'azal, voqeaband g'azal. Bular g'azallarning o'ziga xos kompozitsion turlaridir. G'azalning badiiy jihatdan salmog'i, mazmun, g'oya va ruhiy ta'sir kuchini tushunish uchun uning shakliy tuzilishi, misralararo ma'noviy bog'lanishi muhimdir.

Har bir turga mansub g'azallar o'ziga xos kompozitsion xususiyatlar bilan farqlanib turadi. G'azallarning tematik kompozitsiyada boshlanma, o'y-fikr va his-kechinmalar rivoji hamda yakundan tarkib topadi. G'azallarda ko'tarilgan mavzu asosida tematik kompozitsiya tiplari o'zgarib boradi.

D.Quronov lirik asarning tematik kompozitsiyasi tiplarini quyidagicha ajratadi: "Falsafiy mavzuda yozilgan lirik she'rlarda muammo qo'yiladi muhokama qilinadi, xulosa chiqariladi; O'y-fikr, his-kechinma ikki tematik obraz qiyosi asosida amalga oshiriladi; ikki

tematik obraz zidlanadi; tematik obrazlar darajalanadi va mazmun kuchayib boradi.”[1.226-227]

“Yakpora g‘azallar har baytning mazmunan o‘zidan oldingi va keyingi baytlarga izchil bog‘langan bo‘ladi. Matla‘da ko‘tarilgan bir mavzuni izchil yoritish jarayonida vujudga keladi.” Muqimiy ijodida yakpora g‘azallar salmoqli o‘rinni egallaydi.

Uchradi nogah manga bir dilbari mahro‘gina,
Xandasi shirin, kalomi jonfizo diljo‘gina.
Husnidin o‘tlig‘ netongkim boqsa ruxsorin ochib,
Kelturalmay tobu toqat bo‘lsa ko‘zgu suvgina.
Mehr vaqtida nihoyat mehribon, ko‘ngilnavoz,
Qahr hangomi bag‘oyat tundu ham badxo‘gina.
Donai xoli yarashgan chehrai gulnorig‘a,
Ko‘zlari ohu kabi mushki Ho‘tan gesugina.
Oh urar tovus bog‘larda xiromini ko‘rib,
Hasratidin kabk go‘yo o‘tga tushgan mo‘gina.
Nola bulbuldek judoliqdin, Muqimiy aylaram,
Yetsa shoyad, deb, visoling gullaridin bo‘gina.[2.119-120]

Mazkur g‘azal ishqi mavzuda bo‘lib, boshlanma vazifasini “Uchradi nogah manga bir dilbari mahro‘gina” misrasi bajargan. Lirik qahramon nogohon ma‘shuqasiga duch keladi. Va birinchi baytning ikkinchi misrasidan yorini ta‘riflashni boshlaydi: “So‘zi jonfizo, kulgusi shirin”. Ikkinchi baytda yuzi haqida gap boradi: “Yuzi ochib qarasa oyina ham dosh bera olmay suv bo‘lib oqadi”. Uchinchi baytda his kechinmalar rivojlanib, ma‘shuqasiga xos real holat ham ko‘zdan qochirilmaydi: “Mehr vaqtida nihoyatda ko‘ngillarni oluvchi mehribon, qahr paytida esa “tund-u badxo‘gina” ekanligi aytiladi.

Keyingi baytdan yana so‘z ma‘shuqa ta‘rifi-yu tasnifiga bag‘ishlanadi: “Donai xoli qizil yuziga yarashgan. Sochlari xushbo‘y, ko‘zlari ohu kabi. Yurishlari shunday chiroyli, hasratdan tovus oh uradi, kaklik o‘tga tushgan kabobga o‘xshab qoladi.” Ko‘rinib turganidek his-kechinmalar yorning ta‘riflari bilan rivojlanib boradi. Yakunda oshiq ma‘shuqasidan ajralib qolmasligini so‘raydi.

“Parokanda g‘azallar mustaqil baytlardan tuzilgan, ko‘p mavzuli bo‘ladi. Misralarni yagona kompozitsiyaga birlashtirib turgan narsa vazn, qofiya, radif hisoblanadi”[3.385]. Muqimiyning “Oshiq ermasman yuzingga yakka bu Farg‘onada”, “Navbahor ochildi gullar, sabza bo‘ldi bog‘lar”, “Zulm ila qahru g‘azal izhor qilmoq shunchalar”, “Ming salom etgan kishiga bir salom etsang netar”, “Kimning inson xaylidin ul nozanindek yori bor”, “Nozparvar yor agarchi tab‘i zulm ososi bor” misralar bilan boshlanuvchi g‘azallari tuzilish jihatidan parokanda g‘azallar sirasiga kiradi.

“Navbahor ochildi gullar, sabza bo‘ldi bog‘lar” deb boshlanuvchi g‘azalda lirik qahramonning xursandlik kayfiyati ifodalangan. Ikkinchi va uchinchi baytlarda bu mazmun saqlanadi. To‘rtinchi baytdan norozilik kayfiyati boshlanadi. Noroziligiga sababchi noma‘lum “ul sitamgar tufayli ko‘ngilda lola kabi qad-qad dog‘lar paydo bo‘ldi”

Hayfkim ahli tamiz ushbu mahalda xor ekan,

Oldilar har yerda bulbul oshyonin zog'lar.[2.27]

“Ilm ahli bu zamonlarda xor ekan. Bulbullar o'rnini zog'lar egalladi”, deb davrdagi ijtimoiy vaziyatlardan norozi bo'ladi. Keyingi baytda “Do'st deb ko'nglimdagi dardlarni aytsam, malham bo'lishning o'rniga yana battar tirnaydi”.

Marham istab kimsadin, zaxmi dil izhor aylasang,

Chorae qilmoqdin o'zga, ustig'a tirnog'lar.[2.27]

Mazkur g'azal baytlari o'zaro kichik mavzular bilan bir-biriga bog'langan.

“Veqeaband g'azallarda lirik qahramon kechinmalari bilan bog'liq voqea-hodisalar ixcham shaklda, lirik manzarada ehtirosli ifodalanadi”

Banogah uchradi ot o'ynatib bir dilrabo yolg'uz,

Rikobig'a surib ko'z, qo'l ochib qildim duo yolg'uz.

Dedimkim: “Nozaninlar xaylida insof qilganda,

O'zingdur xush takallum, to'tii shirin ado yolg'uz”.

Tabassum birla pinhoni dedi: “Oshiqclarim ichra,

Vale sen ham asir-u muhtalolig'da judo yolg'uz”.

Dedim: “Jono, chekardim dardi hijroningni muddatlar,

Harimi vaslinga mahramlig' erdi muddao yolg'uz”.

Dedi: “Xilvatda tanho ko'rmog'ingdin ne g'araz bordur?”

Dedimkim: “orzu shuldurki, jon qilsam fido yolg'uz”.

Urub bir qamchi aydi: “Oshma haddingdinki, shohlarni

Ko'rolmas hech bir yerda necha sendek gado yolg'uz”

Muqimiyni panohi ismatingda asrog'il, yorab,

Xatarlik dasht aro gumgashtai berahnamo yolg'uz.[2.42]

Mazkur “yolg'uz” radifli g'azali matlasi oshiqning kutilmaganda ma'shuqani uchratib qolishi xabari bilan boshlanib, so'ng ularning o'zaro savol javobi bilan davom etadi va maqta'da bu suhbatga yakun yasaladi. Bu jihatdan g'azal voqeabandlik kasb etib, hayotiy hikoyaga o'xshab ketadi.

Banogoh o'zi yolg'iz otini o'ynatib borayotgan dilbarga ko'zi tushgan oshiq uning oti yollarini silab, duo qiladi. Keyin esa savol-u javob boshlanadi. Savol-u javob goh bayt, goh misra doirasida boradi.

Oshiqning savollarida lutf-u ta'rif-u iltijo-yu iltimos-u ajz-u niyozni ko'rsak, ma'shuq javoblarida nazokat-u e'tirof-u qahr-u itobni ko'ramiz. Goh oshig'-u ma'shuq o'rin almashib, ma'shuq savol-u oshiq javob ham beradi (5-bayt).

Ayni paytda, shoir ma'shuqa kayfiyati o'zgarib borishini ham nazardan qochirmaydi: oshiq ta'rifini keltirganda mayin tabassum qilgan ma'shuqa (3-bayt) mahramlik talab qilganda qahrga minadi (6-bayt), “...unda oshiq bilan yor dialogini tasvirlash emas, dialog vositasida hikoya qilish maqsadi ustivorlik qiladi. Natijada dialog go'yo rivoyaning unsuriga aylanib ketadi, ko'z oldimizda voqea jonlantiriladi – she'r syujetlilik xususiyatini kasb etadi”.

G'azallar qofiyalanish tartibi yoki qofiya san'atlarining qo'llanishiga ko'ra: g'azali husni matla' (a-a, a-a, b-a), g'azali qit'a (b-a, v-a, g-a), g'azali musajja' (barcha baytlarida

ichki qofiya bo'ladi), g'azali zeb qofiya (a-a, a-a, a-a), g'azali zulqofiyatayn (a-a, b-b, v-v) kabi turlarga bo'linadi.

Muqimiy g'azaliyotida qofiya san'atlarining barcha turlari uchramaydi. Faqat g'azali musajja' (qayda boray radifli uchta g'azali, Arzimni aytay bodi sabog'a deb boshlanuvchi g'azali) va g'azali qit'a ("Nozanin! Mastonalar ko'yingda bo'lsa soate", "Har qachonkim, man minar bo'lsam kasal" misra bilan boshlanuvchi) turlarigina uchraydi.

Adabiyot nazariyasiga oid kitoblarda g'azallarning biror she'r san'ati asosida qurilgan yoki yaratilish tarziga ko'ra: g'azali muvashshah, g'azali chiston, g'azali mushoira ko'rinishlari ajratilgan.

Muqimiy adabiy merosida yetmishdan ortiq muvashshah g'azallar uchraydi. bundan ko'rinadiki, shoir muvashshah janrida samarali ijod qilgan. Uning "Necha gulchehra oshiqlig'da hayroning bo'lay..." boshlanuvchi g'azal Nozimxonga, "Jumlai Ho'qand mavzun qadlarini sarvari", "Jonlaringni hurmati, qosidki, jonondin gapur" misrali g'azallarda Jamolxon, "Mahvasho, hech kim sango mandek giriftor o'lmasun" misrali g'azal Muhsinxonga, "Topti husning ko'zgusi xatting g'uboridin safo" misrali g'azalda Tojixon, "Orazu xoling ko'rarga zordurmen sog'inib" misra bilan boshlanuvchi g'azal Oysaxon, "Rastadin gul-gul yonibkim ul mahi tobon kelur" misra bilan boshlanuvchi g'azal Rashidjon, "Nozparvar yor agarchi tab'i zulm ososi bor" misrali g'azalda Normuhammad, "Fikrimiz bog'idin unmas juz niholi orzu" misra bilan boshlanuvchi g'azalda Po'latxon ismlari yashiringan.

Albatta, muvashshah qilingan kishi shoirga yaqin qadrdon, hamsuhbat kishilardan bo'lgan. Bu muvashshahlarda ismi yashirin kishilarning shaxsini aniqlash bilan shoirlar hayoti va ijodiga oid muhim ma'lumotlarga xam oydinlik kiritish, uning ijodiy muhiti haqidagi tasavvurlarni yanada kengaytirish, mumkin.

Umuman olganda Muqimiy g'azallarining kompozitsiyasi xilma xil bo'lib, faqat shakl uchun emas, mazmunni ochib bergan.

ADABIYOTLAR:

1. Quronov D. Adabiyot nazaryasi asoslari. Toshkent: Akademnashr, 2018. –B. 475.
2. Муқимий. Тўла асарлар тўплами. (Нашрга тайёрловчи: Турдиалиев А). – Тошкент. Иқтисодиёт, 2021. –384. б.
3. Quronov D., Mamajonova Z. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent: Akademnashr, 2010. B.—B. 397.
4. Bakirovna, K. Z. (2019). The Rhythm of the Literary Impact. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 8(9), 58-67.
5. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O'RGANILISHI. Hamkor konferensiyalar, 1(1), 215-219.
6. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In E-Conference Globe (pp. 25-26).

7. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10, 121-123.
8. TURSUNOVA, N. (2025). ALISHER NAVOIY AN'ANALARINING MUQIMIY IJODIDAGI TAKOMILI. Hamkor konferensiyalar, 1(11), 260-263.
9. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(09), 187-191.
10. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548